

**Toshkent shahrida BRT loyihasini amalga oshirish doirasida
Eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali xalqaro konsultant
(muhandis-konsultant) xizmati xaridni amalga oshirish to'g'risida
E'LON!**

Buyurtmachi va shartnoma tuzuvchi (keying o'rinlarda – Buyurtmachi) Toshkent shahrida BRT loyihasini amalga oshirish doirasida xalqaro konsultant (muhandis-konsultant) xizmatini xarid qilish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish orqali xarid (keying o'rinlarda – Tanlov) amalga oshirilayotganligini e'lon qiladi.

T/r	Xarid qilinayotgan xizmat nomi	O'lchov birligi (dona, kg, va x.z.)	Miqdori	Boshlang'ich narxi	Yetkazib berish muddati
1.	“Shahrisabz ko'chasi, Amir Temur shoh ko'chasi, Yangi Sargeli yo'li bo'yab avtobuslar harakati uchun maxsus ajratilgan yo'laklarni (BRT) tashkil etish, Amir Temur-Rixsiliy va Yangishahar ko'chalari kesishmasida tunnel qurish” obyektlari bo'yicha texnik nazorat va konsalting xizmatlarini xarid qilish	Kompleks xizmat	1	1-bosqich uchun 6 285 857 221 so'm QQS bilan	Avans to'lovi amalga oshirilgan yoki akkreditiv ochilgan kundan boshlab 240 kun ichida.

1. Tanlovni o'tkazishning huquqiy asosi.

Mazkur Tanlov, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 31-oktabrdagi “Toshkent shahrida yo'l-transport infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-202-son Farmoni 14-bandiga, xususan quyidagilarga muvofiq amalga oshirilmoqda:

- eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali;
- maxsus axborot portalida e'lon joylashtirmagan holda;
- jamoatchilik muhokamasini o'tkazmasdan;
- davlat xaridlarining elektron tartib-taomillarini qo'llamasdan.

Mazkur Tanlovni ushbu tartibda amalga oshirish davlat xaridlari to'g'risidagi umumiy qoidalardan istisno tariqasida qonuniy asosga ega va nazorat qiluvchi va auditorlik organlari tomonidan qonun buzilishi sifatida talqin etilmaydi.

2. Tanlov predmeti.

Toshkent shahrida BRT loyihasi doirasida va Texnik topshiriq (Terms of Reference) asosida quyidagi xizmatlarni xarid qilish:

- texnik nazorat (construction supervision);
- muhandis-konsultantlik va loyiha muvofiqligini ta'minlash;
- loyiha hujjatlarining bajarilishini monitoring qilish.

3. Ishtirokchilar doirasi.

Tanlovda quyidagi subyektlar ishtirok etishi mumkin:

mahalliy va xorijiy konsalting kompaniyalari;

xalqaro muhandis-konsultant tashkilotlar;

xususiy muhandis-konsultantlar (zarur hollarda konsorsium tarkibida).

4. Tanlov o'tkazish manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Beshyog'och MFY, Islom Karimov ko'chasi, 51-uy (mo'ljal: Toshkent shahar hokimligi binosi).

5. Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachi, shu jumladan, Toshkent shahrini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan.

6. To'lov shartlari: Tanlov ishtirokchilari - rezidentlar va norezidentlar uchun shartnoma oylik summasining 15 foizi miqdorida avans to'lovi amalga oshirilgandan so'ng, qolgan 85 foizi hisobot oyidan keyingi oyning oxirigacha, biroq moliya yilining oxirgi kunidan kechiktirmay (dekabr oyi uchun) amalda ko'rsatilgan xizmatlardan kelib chiqqan holda to'lanadi.

7. Xizmatni yetkazib berish muddati: avans to'lovi amalga oshirilgandan yoki akkreditiv ochilgandan keyin 240 kun mobaynida.

8. Takliflarni taqdim etish tartibi.

Tanlov ishtirokchilari o'z takliflarini quyidagi ikki qismda taqdim etadilar:

Texnik taklif (Technical Proposal);

Moliyaviy taklif (Financial Proposal).

Takliflar:

yozma shaklda yoki Buyurtmachi tomonidan ruxsat etilgan hollarda elektron shaklda;

vakolatli shaxs tomonidan imzolangan holda

yuqorida keltirilgan manzilga taqdim etiladi.

Tanlov ishtirokchilari taqdim etilayotgan ma'lumot (axborot va xujjat)larning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadilar.

Tanlov ishtirokchilarining takliflari ip bilan tikilgan, raqamlangan, muhrlangan va vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan yoki taklifning har bir varag'i imzolangan holda muhrlangan konvertlarda e'londa ko'rsatilgan manzilga taqdim etilishi tavsiya etiladi.

Tijorat takliflari (texnik va narx qismi) tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon Buyurtmachi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan kundan boshlab qabul qilinadi.

Tanlovda bitta ta'sischi bo'ysinuvidagi korxonalar (tashkilot)lardan faqat bittasining taklifi qabul qilinadi, ya'ni tanlov ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

9. Axborotlarning haqqoniyligi.

Ishtirokchilar taqdim etilgan barcha hujjatlar, ma'lumotlar va hisob-kitoblarning haqqoniyligi, aniqligi va to'liqligi uchun to'liq javobgar hisoblanadilar.

Noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, taklif baholashdan chetlashtirilishi mumkin.

10. Takliflarni qabul qilish muddati

Takliflar 2026 yil 9-iyundan boshlab 24-iyungacha (9:00-18:00).

Belgilangan muddatdan kech taqdim etilgan takliflar ochilmaydi va baholanmaydi.

11. Tanlovda ishtirok etishga cheklovlar.

Bir ta'sischi yoki bir nazorat ostidagi guruhga mansub bo'lgan ishtirokchilardan faqat bitta taklif qabul qilinadi.

Har bir ishtirokchi faqat bitta taklif taqdim etish huquqiga ega.

12. Tanlov ishtirokchilari taklifining ta'minoti miqdori (*zakalat yoki bank kafolati*).

Tanlov boshlang'ich narxining 1 (bir) foizi miqdoriga teng bo'lgan 62 858 572 (oltmish ikki million sakkiz yuz ellik sakkiz ming besh yuz yetmish ikki) so'm mablag' Buyurtmachining tijorat bankidagi hisob-raqamiga zaklat sifatida o'tkazilishi yoki ushbu summaga bank kafolati (shu jumladan, ularni taqdim etish (o'tkazish) sanasida Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan ekvivalent qiymatidagi xorijiy to'lov valyutasida) taqdim etilishi mumkin.

Norezidentlar tomonidan 62 858 572 (oltmish ikki million sakkiz yuz ellik sakkiz ming besh yuz yetmish ikki) so'mga teng bo'lgan, taqdim etish (o'tkazish) sanasida Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan ekvivalent qiymatidagi xorijiy to'lov valyutasida mablag' Buyurtmachining tijorat bankidagi tegishli hisob-raqamiga zaklat sifatida o'tkaziladi yoki ushbu summaga bank kafolati taqdim etilishi mumkin.

Taklifning ta'minot usuli, shu jumladan, Ishtirokchining kelishilgan muddat davrida o'z Taklifini qaytarib olmasligiga kafolat beruvchi pul zakalatini kiritish yoki tegishli bank kafolatini taqdim etish amalga oshiriladi.

Buyurtmachi Tanlov shartlariga muvofiq qabul qilgan ta'minot summasi yoki ta'minotiga oid boshqa hujjatlar quyidagi holatlardan biri ro'y bergan taqdirda ishtirokchiga (bank xizmatlari uchun to'lovlarni chegirib qolgan holda) bir ish kuni davomida qaytarilishini ta'minlaydi:

Taklif ta'minotiga oid hujjatning amal qilish muddati tugagan bo'lsa;

Tanlov g'olibi bilan tuzilgan shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi;

Tanlov bekor qilinishi;

Takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar Taklifning chaqirib olinishi.

13. Tanlov ishtirokchilari taklifining ta'minoti uchun Buyurtmachining bank rekviztlari.

"TOSHKENT INVEST KOMPANIYASI" AJ.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Beshyog‘och MFY, Islom Karimov ko‘chasi, 51-uy.

Hisob raqami: 20210000605696233001.

Bank: "O‘zsanoatqurilishbank" ATB Korporativ markaz.

MFO: 00440.

STIR: 310 731 897.

IFUT: 70100.

QQS HKKP: 303010232907.

JSC “TOSHKENT INVEST KOMPANIYASI”.

Address: 51 Islam Karimov Street, Beshagach MCG, Chilanzar District, Tashkent City, Uzbekistan.

TIN: 310731897.

OKED (Business Activity Code): 70100.

VAT Registration Code: 303010232907.

Account in USD: 20210840705696233001.

Bank name: Uzbek Industrial And Construction Bank' Joint-Stock Commercial Bank.

JSCB “UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK”.

Bank address: 3, Shakhrisabz Street, Tashkent, 100000, Uzbekistan.

SWIFT: UJSIUZ22.

14. Umumiy talablar.

Ishtirokchi:

o‘zining korxonasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim qilishi;

xizmatga nisbatan qo‘yilgan texnik topshiriq bo‘yicha to‘liq ma‘lumotnomani taqdim qilishi;

tijorat taklifini imzolagan shaxs, korxonaning qonuniy vakili (raxbari yoki o‘rinbosari) bo‘lishi;

texnik talablarga muvofiq taklif etilayotgan xizmat uchun barcha texnik parametrlarini batafsil ko‘rsatishi zarur.

Texnik parametrlari to‘liq bo‘lmagan takliflar bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumotlar (muvofiqlik sertifikatlari, foto suratlari va boshqalar) so‘ralishi mumkin. To‘liq ma‘lumot taqdim etmagan ishtirokchilarning takliflari ko‘rib chiqilmaydi.

Buyurtmachi tomonidan xizmatni xarid qilish uchun o‘z rasmiy veb-sayti orqali berilgan mazkur e‘londa belgilangan takliflarni oxirgi qabul qilish sanasi va vaqtdan so‘ng tijorat takliflari taqdim etilgan hollarda taklif kechikib taqdim etilganligi bois inobatga olinmaydi.

Tijorat taklifda xizmatning narxi ayrim soliqlarni (shu jumladan; 12% QQS) inobatga olingan holda, boshlang‘ich baho summasidan oshmasligi lozim.

Ishtirokchi tomonidan yuborilgan tijorat taklifda 1 (bir) o'lchov birlik (dona, quti, tuplam va x.k.z.lar) uchun narxni ko'rsatgan holda yuborish maqsadga muvofiq.

15. Tanlovni o'tkazish va ishtirokchilar takliflarini baholash tartibi.

Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni qabul qilish tugagan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali xaridni amalga oshirish komissiyasi (keying o'rinlarda — Komissiya) tomonidan "sifat-narx" prinsipi asosida texnik talabga to'liq javob beradigan sifat va eng past narx usulida amalga oshiriladi.

Takliflarni Komissiya tomonidan baholash:

“sifat – narx” (QCBS) prinsipi asosida;

avvalo texnik takliflar baholanadi;

texnik baholashdan o'tgan ishtirokchilarning moliyaviy takliflari ochiladi;

yakuniy ball asosida g'olib aniqlanadi.

Tanlov ishtirokchilari yuborgan takliflar ushbu xizmat uchun takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqtdan so'ng Buyurtmachining xarid Komissiya tomonidan o'rganib chiqiladi va xizmatning texnik ko'rsatkichlari talabga muvofiq bo'lsa, narxlar solishtirilgan holda Komissiya a'zolari tomonidan yig'ilish o'tkazilib, eng yaxshi (ma'qul) taklif tanlab olinadi. Komissiya yig'ilishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

16. Tanlov yuzasidan takliflarni qabul qilib olishning oxirgi sanasi va vaqti:

-2026-yil 24-iyungacha 9:00 - 18:00 ga qadar.

Qo'shimcha savollar va ma'lumotlar yuzasidan mas'ul vakil bilan bog'lanishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun:

Buyurtmachi ma'sul vakili: Bekmatov Behzod.

Telefon: – (71) 210-02-61, (90) 977-72-53, (97) 778-08-71.